O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
O'quv-uslubiy boshqarma
№ 132
«30» 08 2024 y.

“Tasdiqlayman”
Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori
______ Sh.T.Ergashev
2024-yil “30” 08

# MAKROIQTISODIYOT-2

## FANNING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohalari:** 400 000 - Biznes, boshqaruv va xuquq

**Ta’lim sohalari:** 410 000 - Biznes va boshqaruv

**Mutaxassislik:** 70410102 - Iqtisodiyot

Namangan-2024

| Fan/modul' kodi MAKIQ-21205 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 2 | Kreditlar 5 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul' turi Majburiy fanlar | | Ta'lim turi O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 5 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil Ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Makroiqtisodiyot-2 | | 74 (30 m / 44 a) | 75 | 150 |

2\. **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarga makroiqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishdagi bilimlarini modellardan foydalangan holda kengaytirish, makroiqtisodiy modellashtirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, pul-kredit va soliq-byudjet siyosatlarini muvofiqlashtirish asosida barqaror rivojlanishga erishish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim va malaka shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** - talabalarda zamonaviy makroiqtisodiy nazariyalarni tushunishga va ushbu bilimlardan dolzarb makroiqtisodiy muammolarni bartaraf etishda foydalanish, makroiqtisodiy modellashning iqtisodiy tahlil va prognozlashdagi rolini ochib berish, makroiqtisodiy tadqiqotlarning tegishli yo'nalishlarini o'rganish va makroiqtisodiy vaziyatni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- Iqtisodiy malumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalana olishni o'rgatish;
- Iqtisodiy tahlil qila olishni o'rgatish;
- Iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq tasvirlashni o'rgatish;
- Iqtisodiy tadqiqot olib boorishda iqtisodiy konsepsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Makroiqtisodiyotga mukammal yondashuv**

Makroiqtisodiyot rivojlanishining qisqacha tarixi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Milliy hisoblar tizimining boshqa ko'rsatkichlari. Narxlar darajasini hisoblash ko'rsatkichlari. Ishsizlikni hisoblash. Yalpi ichki mahsulot (YaIM). Yakuniy mahsulotlar. Qo'shilgan qiymat. Oraliq mahsulot. Nominal va real YaIM. YaIM deflyatori. Inflyatsiya. Narx darajasi. Iste'mol



narxlari indeksi (INI). Milliy hisoblarning o'ziga xosligi. Iste'mol. Investitsiya. Davlat xarajatlari. Mehnatga layoqatli aholi. Ishchi kuchi. Ishsizlik darajasi. Ouken qonuni.

**2-mavzu. Umumiy iqtisodiy muvozanatning neoklassik modeli**

Resurslar bozorida muvozanat. Milliy daromadni taqsimlashning neoklassik nazariyasi. Ish haqi real miqdorini oshirishning individual mehnat taklifiga ta'siri. Soliq-byudjet siyosatining muvozanatga ta'siri. Investitsion talab o'zgarishining muvozanatga ta'siri. Ish haqining real stavkasi. Kapital narxining real ijarasi. Iqtisodiy foyda. Iste'mol funktsiyasi. Investitsiya funktsiyasi. Iste'molga chegaralangan moyillik. Nominal foiz stavkasi. Real foiz stavkasi. Xususiy jamg'armalar. Jamoat (davlat) jamg'armalari. Milliy jamg'armalar. Soliq-byudjet siyosati.

**3-mavzu. Iste'mol**

I.Fisherning vaqtlararo tanlov modeli. Hayotiylik davri gipotezasi. Fisher modelining umumiy tavsifi va hayotiylik davri modelida Kuznets topishmog'i. Qisqa va uzoq muddatli iste'mol funktsiyalari. Davrlarning birida daromadning ko'payishi bilan iste'molchining maqbul qarorini o'zgartirish. Foiz stavkasini oshirish bilan jamg'arish qarorini o'zgartirish. Qarz oluvchining qarz olishni cheklash to'g'risidagi qarori. Fisher modelida qat'iy daromad gipotezasidan foydalangan holda iste'molchi qarori.

Doimiy daromad to'g'risidagi gipoteza. Iste'molga o'rtacha moyillik. Vaqtlararo byudjet cheklovlari. Qarzdorlik bo'yicha cheklov. Boshlang'ich boylik. Jamg'arilgan boylik. Jamg'arilgan boylikni iste'mol qilishga chegaralangan moyillik. Doimiy daromad to'g'risidagi gipoteza. Doimiy daromad. Vaqtinchalik daromad.

**4-mavzu. Investitsiya**

Korxonaning asosiy fondlariga investitsiyalarning neoklassik modeli. Bir davrli model. Ko'p davrli model. Kapitalning istalgan zaxiralariga moslashish xarajatlarini hisobga olish modeli. Soliq siyosatining firmalarning investitsion qarorlariga ta'siri. Tobinning nazariyasi. Uy-joy qurish uchun investitsiyalarning muvozanatini aniqlash. Investitsion loyihalarni kapitalning chegaraviy samaradorligi bo'yicha saralash va investitsiya talabining funktsiyasini aniqlash. Qarzdorlik cheklovlarining ta'siri. Uy-joy qurilishiga investitsiya. Zaxiralarga investitsiyalar. Keynscha yondashuv. Investitsiyaning neoklassik modeli. Kapital birligiga real xarajatlar. Sof investitsiya. Korporatsiya daromadiga soliq. Investitsiyalar uchun soliq krediti. Tobinning ko'rsatkichi. Kapital zaxiralarining barqaror holati. Moliyaviy cheklovlar. Ishlab chiqarish tebranishlarini oldini olish. Zaxiralar

ishlab chiqarish omili sifatida. Zaxirani kamayishidan himoya qilish. Tugallanmagan qurilish. Aksellerator modeli. Investitsiyaning keynscha modeli.

**5-mavzu. Ishsizlik**

Tabiiy ishsizlik darajasi. Real ish haqining qat'iyligi (o'zgarmasligi) va ishsizlik kutilmalari. Minimal ish haqi to'g'risidagi qonun. Kasaba uyushmalari va jamoaviy bitimlar. Rag'batlantiruvchi ish haqi. Samarali ish haqi uchun Solou shart-sharoiti. Shapiro-Stiglitz modeli. Ishdan bo'shatish darajasi. Bandlik darajasi. Ishchi kuchi tarkibidan chiqib ketish darajasi. Ishsizlik nafaqasi. Real ish haqining qat'iyligi. Ish haqining samarali stavkalari. Muvozanatdan yuqori samarali ish haqi. Qayta ishga joylashish imkoniyati. Halol mehnat xarajatlaridan yuqori muvozanatli ish haqi.

**6-mavzu. Monetar siyosat**

Pul. Pul taklifi. Pulning miqdoriy nazariyasi. Fisher samarasi. Senoraj. Fridman modeli. Emissiyadan real daromad uchun Laffer egri chizig'i. O'zgaruvchan narxlar bilan dunyoda yashashning noqulayligi.

**7-mavzu. Inflyatsiya**

Inflyatsion xarajatlar. Klassik dixotomiya. Inflyatsiya darajasi. Pulning funktsiyalari. Tovar pullari. Qog'oz pullar. Kredit pullari. Pul agregatlari. Likvidlilik. Pulning miqdoriy tenglamasi. Inflyatsion soliq. Monetar siyosatda inflyatsiyaga moyillik. Kidland - Preskott modeli. Real foiz stavkasi. Real foiz stavkasi. Pulga talab. Real pul zahirasi. Pulning neytralligi.

**8-mavzu. Fiskal siyosat va byudjet defitsiti**

Davlat qarzini moliyalashtirish manbalari. Barro-Rikardo tengligi. Davlat byudjetini cheklash. Davlat qarzining ta'sirini baholashga yondashuvlar. Davlat qarzining an'anaviy ko'rinishi. Barro-Rikardo yondashuvi. Barro-Rikardo yondashuvining mantig'i. Barro-Rikardo yondashuvining asoslanishi. Rikardoning tengligiga e'tirozlar. Ichki qarz uchun to'lov qobiliyati modellari. Aralash moliyalashtirish, byudjet taqchilligi bo'lgan davlatning to'lov qobiliyati holati. Tashqi qarzlar bo'yicha to'lov qobiliyati modellari. To'lov qobiliyatining qat'iy sharti. Qarzning nisbiy miqdorini hisobga olgan holda to'lov qobiliyati holati. Davlatning umumiy to'lov qobiliyati holati. To'lov qobiliyatining muhim (chegaraviy) ko'rsatkichlari.

**9-mavzu. Ochiq iqtisodiyot**

Ochiq iqtisodiyotdagi milliy daromad. To'lov balansi. Deviz kursi. Nominal ayirboshlash kursi. Real ayirboshlash kursi. Xarid qobiliyati pariteti.



Tuzatilgan foiz pariteti. Tartibga solinmagan foiz pariteti. Kichik ochiq iqtisodiyot. Tashqi savdo cheklovlari. Devalvatsiya. Kapital hisobi va joriy operatsiyalar hisobi. Valyuta kurslari. Mandell - Fleming modeli. Suzuvchi kurs. Suzuvchi kurs sharoitida soliq-byudjet siyosati, pul-kredit siyosati, tashqi savdo siyosati. Qayd etilgan ayirboshlash kursi. Qayd etilgan ayirboshlash kursi sharoitida soliq-byudjet siyosati, pul-kredit siyosati, tashqi savdo siyosati. Mandell - Fleming modelining algebraik ko'rinishi (chiziqli bog'liqliklar mavjud holatda). Mandell - Fleming modelida iqtisodiy siyosat multiplikatorlari. Valyuta bozoridagi muvozanat. Ichki foiz stavkasi global darajadan past. Ichki foiz stavkasi global darajadan yuqori. Mandel - Fleming modelidagi " Daromad- valyuta kursi" koordinatalarida umumiy muvozanat. "Daromad- valyuta kursi" koordinatalarida rag'batlantiruvchi soliq-byudjet siyosati oqibatlari. Devalvatsiyaning oqibatlari.

**10-mavzu. Lukas modeli: o'zgarmas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot**

Qisqa muddatli yalpi taklif modellari. O'zgarmas (qattiq) ish haqi modeli. Ishchilarning noto'g'ri tushunchalari modeli. Nomukammal ma'lumotlar modeli. O'zgarmas (qattiq) narx modeli. Real ish haqining davriy tebranishlari. Fillips egri chizig'i. Inflyatsiya va ishsizlikning o'zaro bog'liqligi. Fillips egri chizig'i va yalpi taklif. Iqtisodiy siyosatning oqibatlari. Inflyatsiyaga qarshi kurashda yo'qotishlar va natijalar nisbati. Lukas tanqidi. Kaplin-Spalber modeli. Yalpi taklifga zamonaviy qarashlar. Menyu narxi va yalpi talabning tashqi ta'siri. Narxlar va ish haqining kechikishi. Retsessiya muvofiqlashtirishning etishmasligi sifatida. Gisterezis (uzulish) gipotezasi. Real ish haqining kontratsiklik xususiyati. Real ish haqining protsiklik xususiyati. Real ish haqining atsiklik xususiyati.

**11-mavzu. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi**

Akselerator multiplikatori. Rag'batlantiruvchi pul-kredit siyosati sharoitida uzoq muddatli muvozanatga o'tish jarayoni. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat sharoitida uzoq muddatli muvozanatga o'tish jarayoni. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi. "Real yalpi talab - real yalpi taklif" modelidagi davriy tebranishlar. Mehnat taklifidagi vaqtincha almashtirish. Soliq-byudjet siyosatidagi o'zgarishlar. Ishlab chiqarish texnologiyasida keskin o'zgarishlar. Mehnat taklifining mikroiqtisodiy tahlili va texnologiyaning keskin o'zgarishi oqibatlari. Real iqtisodiy davr modeli. Real iqtisodiy davr nazariyasi bo'yicha munozaralar. Daromadning o'zgarish traektoriyasi. Divergent, konvergent va tsiklik tebranishlar. Yalpi talabning dinamik funktsiyasi. Yalpi taklifning dinamik funktsiyasi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi talab egri chizig'i. Mehnat taklifida vaqtincha almashtirishning samarasi.

### 12-mavzu. Robert Solouning o'sish modeli va endogen o'sish

Iqtisodiy o'sish: ba'zi muhim faktlar. Solou modeli. Model tavsifi. Jamg'arma normasi o'zgarishining ta'siri. Barqaror holatlarni taqqoslash. Oltin qoida. Iqtisodiy o'sish manbalarini hisoblash. Solouning qoldig'i. Solou modelining kamchiliklari va ularni bartaraf etish usullari. Kapitalning ortib boruvchi intensivligi. Aktivlarning ortib borishi. Texnologik o'sish sur'ati. Iste'molning o'sish sur'ati. Daromadning dastlabki o'sish sur'ati. Mehnat unumdorligi. Doimiy samaradorlik bilan mehnat unumdorligi. Doimiy samaradorlik bilan mehnatning kapital bilan qurollanganligi. Mehnatni tejaydigan texnologik taraqqiyot. Oltin qoidaga mos keladigan barqaror holatga o'tish. Omillarning umumiy unumdorligi. Kapital bilan qurollanganlikning (investitsiyalarning kritik qiymati) barqaror darajasini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar. Endogen ilmiy va texnologik taraqqiyot modellari.

### 13. Fiksal siyosat: byudjet defitsiti va davlat qarzi

O'sishning yangi nazariyasi (endogen o'sish). Tadqiqot va ishlanmalar (R&D) modellari. Kapitalsiz model. Ilmiy-tadqiqot ishlarida bilimlarning tabiati va resurslarni taqsimlashning omillari. Bilimlarni to'plash modellarida endogen jamg'armalar. Bilimlarni to'plash modellari va o'sish nazariyasining markaziy muammolari. Empirik tadqiqot: miloddan avvalgi 1 million yillikdan boshlab aholining o'sishi va texnologik taraqqiyot. Mamlakatlararo daromadlardagi tafovutlar. Inson kapitali bilan kengaytirilgan Solou modeli. Empirik tadqiqot: Daromadlar o'rtasidagi turli-tuman farqlarni tushuntirish. Ijtimoiy infratuzilma. Ishlab chiqarish, himoya va qaroqchilik modeli. O'sish sur'atlaridagi farqlar

### 14-mavzu. Abadiy davomiylik va bir davrda yashayotgan avlodlar modeli

Modelning umumiy tavsifi. Omillar bozori. Barqaror muvozanat. Solou modelining o'xshash nusxasi. Mehnat va bilimning o'sish darajasi. Kapital jamg'arish. Raqobatlashuvchi firmalar. O'zgarmas uy xo'jaliklari soni. Infinite-horizon.Remsey. Kass. Kupmens. Overlapping generations- OLG model. Ramsey–Cass–Koopmans modeli va Diamond modelining farqlari. Ijtimoiy ta'minot va kapital jamg'arish. Uzoq muddatli muvozanatga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat. Errou – Debro usuli. Iqtisodiyotga yangi uy xo'jaliklarining kirib kelishi. Uy xo'jaliklari va firmalarning hatti-harakatlari. Uy xo'jaliklarini maksimallashtirish muammosi. Iqtisodiyot dinamikasi. Balanslashgan o'sish yo'li. Ijtimoiy optimum. Diamond modelida davlat sektori.



### 15-mavzu. Makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi muammolar

Faol va passiv makroiqtisodiy siyosat. Inflyatsiya va ishsizlikning qiyosiy xarajatlari. Iqtisodiyotning holati to'g'risida ma'lumotlarning nomuvofiqligi. Oqilona umidlar va Lukas tanqidi. Vaziyatlar yoki qoidalar bo'yicha siyosat. Iqtisodiy siyosatning dinamik nomuvofiqligi. Siyosiy tsikl masalalari. Dinamik yangi Keynscha modellarning shakllanish bloklari. Oldindan belgilangan narxlar: Fisher modeli. Qayd etilgan narxlar: Teylor modeli. Kalvo modeli va yangi keynscha Filippsi egri chizig'i. Davlatga bog'liq narxlar. Empirik dasturlar. Inflyatsiya inertsiyasi bilan narxlarni bosqichma-bosqich tuzatish modellari. Faol iqtisodiy siyosat. Passiv iqtisodiy siyosat. Iqtisodiy siyosatdagi bo'shliq (lag). Tashqi lag. Ichki lag. Dinamik nomuvofiqlik. Markaziy bankning mustaqilligi. Ish haqi va narxlarni boshqarish. Daromadlar siyosati.

## III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Makroiqtisodiyotga mukammal yondashuv
2. Umumiy iqtisodiy muvozanatning neoklassik modeli
3. Umumiy iqtisodiy muvozanatning neoklassik modeli
4. Iste'mol
5. Investitsiya
6. Investitsiya
7. Ishsizlik
9. Monetar siyosat
10. Inflyatsiya
11. Fiskal siyosat va byudjet defitsiti
12. Fiskal siyosat va byudjet defitsiti
13. Ochiq iqtisodiyot
14. Lukas modeli: o'zgarmas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot
15. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi
16. Robert Solouning o'sish modeli va endogen o'sish
17. Robert Solouning o'sish modeli va endogen o'sish
18. Fiksal siyosat: byudjet defitsiti va davlat qarzi
19. Fiksal siyosat: byudjet defitsiti va davlat qarzi
20. Abadiy davomiylik va bir davrda yashayotgan avlodlar modeli
21. Makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi muammolar
22. Makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi muammolar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan

| | |
|---|---|
| | auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. Iste'molning empirik funktsiyalari<br>2. Inflyatsiya, pul, valyuta kurslari<br>3. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosati.<br>4. O'zbekiston Respublikasi eksport salohiyatini kuchaytirish yo'llari.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br><br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>✓ asosiy makroiqtisodiyot kategoriyalarni va tadqiqot usullarini bilishi, asosiy makroiqtisodiy modellar va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettira olishi; tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmining mohiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi, makroiqtisodiy modellarning shakllanish va iqtisodiy xususiyatlari va prognozlash; eksport hajmini kengaytirish imkoniyatlari va uni raqobatga bardosh bera olish usul va yo'llari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;<br><br>✓ kasbiy sohada ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi va metodikasini qo'llay olish; mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatlari; zamonaviy vositalardan foydalangan holda makroiqtisodiy modellashtirish; yangi zamonaviy iqtisodiy o'sish strategiyalarini tanlashda analitik usullaridan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;<br><br>✓ ilmiy va o'quv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, chuqur kasbiy bilimlarni talab qiladigan muammolarni shakllantirish va hal qilish; ma'lum makroiqtisodiy jarayonlarni o'rganish uchun yetarli uslub va modellarni tanlash; mavjud usullarni aniq vazifalar talablariga moslashtirish, shuningdek yangi usullarni ishlab chiqish; nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini tahliliy shaklda taqdim etish; moliyaviy tahlil usllarini qo'llay olish, inson kapitalini o'rganish bo'yicha zamonaviy usullarni ishlatish, loyiha boshqaruvini amalga oshirish hamda natijalardan foydalanish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |



| | |
|---|---|
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;<br>• esse, tezis va maqola yozish;<br>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish;<br>• jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim;<br>• muhokamalarda ishtirok etish;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• loyiha ishi bajarish;<br>• mustaqil ishlarni bajarish;<br>• taqdimot tayyorlash;<br>• turli darajadagi testlarni echish;<br>• so'rov o'tkazish. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.Yakubov I.O., Hakimov H.A. Makroiqtisodiyot-2.O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2019. -217bet.<br>2.L.F.Amirov. Makroiqtisodiyot-2.Darslik. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 –228b.<br>3.Romer D. Advanced Macroeconomics. 5th ed. — McGraw-Hill, 2018. - 800 p. — ISBN 1260185214.<br>4.N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 9 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2016<br>5.Abel A.B., Bernanke B.S., Croushore D. Macroeconomics. 8 th edition. USA: Amazon, 2013<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.<br>3. Romer D., Advanced Macroeconomics. 4th ed. — McGrow Hill Book Company: London, 2012.<br>4. Дэвид Ромер. Высшая макроэкономика: учебник /пер. с англ. под науч. ред. В. М. Полтеровича. - 2-е изд. - Москва : Издательский дом Высш. шк. экономики, 2015. – 854 с |

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbaalari**<br>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)<br>4. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)<br>5. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)<br>6. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)<br>7. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)<br>8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi) |
| 7. | **Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul' uchun ma'sullar:**<br>O.Aripov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.d. DSc.<br>E.Jurayev – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. PhD.<br>Sh.Ibrogimov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi, i.f.f.d. PhD. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>M.Isakov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.n.<br>D.Baymirzayev – NamDU "Menejment" kafedrasi mudiri, dotsent, i.f.n. |